

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTON UMUMTA'LIM MAKTABLARI TARIX FANI DARSLIKLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI VA TAKOMILLASHUV BOSQICHLARI

Hakimov Nurhayot Zokirovich

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, mustaqil tadqiqotchi.

e-mail: nurjonsalomov@gmail.com .ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-9757-1856>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada mustaqillik yillarida O'zbekiston umumta'lim maktablari tarix fani darsliklarining konseptual asoslari hamda ularning takomillashuv bosqichlari ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqotda tarix darsliklarini yaratish va rivojlantirish jarayonining asosiy yo'nalishlari, ularning mazmuni va metodologiyasida yuz bergan o'zgarishlar yoritilgan. Xususan, sovet davri mafkurasi ta'sirida shakllangan yondashuvlardan voz kechilib, milliy davlatchilik tarixi, tarixiy xotira, milliy qadriyatlar va vatanparvarlik g'oyalariga asoslangan yangi konsepsiyaning shakllanishi tahlil etilgan. Shuningdek, tarix darsliklari taraqqiyotining uch bosqichi, ta'lim sohasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning darsliklar mazmuniga ta'siri hamda yangi avlod darsliklarida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi masalalari o'rganilgan. Maqolada tarix darsliklarining o'quvchilarda tarixiy tafakkur, tanqidiy fikrlash va mustaqil tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni ochib berilgan. Tadqiqot natijalari mustaqillik davrida tarix ta'limi mazmunini modernizatsiya qilish va tarix darsliklarini takomillashtirish jarayonlarini yoritishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tarix ta'limi, tarix darsliklari, umumta'lim maktablari, milliy tarix konsepsiyasi, mustaqillik yillari, ta'lim islohotlari, tarixiy xotira, milliy davlatchilik, kompetensiyaviy yondashuv, yangi avlod darsliklari.

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ И ЭТАПЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УЧЕБНИКОВ ПО ИСТОРИИ ДЛЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ УЗБЕКИСТАНА В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Хакимов Нурхаёт Закирович

Международный университет Кимё в Ташкенте, независимый исследователь.

Аннотация.

В данной статье проведён научный анализ концептуальных основ и этапов совершенствования учебников истории для общеобразовательных школ Узбекистана в годы независимости. В исследовании раскрываются основные направления создания и развития учебников истории, а также изменения, произошедшие в их содержании и методологии. Особое внимание уделено отказу от подходов, сформировавшихся под влиянием советской идеологии, и становлению новой концепции, основанной на истории национальной государственности, исторической памяти, национальных ценностях и идеях патриотизма. Кроме того, рассматриваются три этапа развития учебников истории, влияние нормативно-правовых актов, принятых в сфере образования, на содержание учебников, а также вопросы внедрения компетентностного подхода в учебники нового поколения. В статье раскрывается роль учебников истории в формировании у учащихся исторического мышления, критического мышления и навыков самостоятельного анализа. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию процессов модернизации содержания исторического образования и совершенствования учебников истории в период независимости.

Ключевые слова: историческое образование, учебники истории, общеобразовательные школы, концепция национальной истории, годы независимости, образовательные реформы, историческая память, национальная государственность, компетентностный подход, учебники нового поколения.

CONCEPTUAL FOUNDATIONS AND DEVELOPMENT STAGES OF HISTORY TEXTBOOKS FOR GENERAL SECONDARY SCHOOLS IN UZBEKISTAN DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Hakimov Nurhayot Zokirovich

Kimyo International University in Tashkent, Independent Researcher.

Abstract.

This article presents a scholarly analysis of the conceptual foundations and development stages of history textbooks for general secondary schools in Uzbekistan during the years of independence. The study examines the main directions in the development of history textbooks and highlights the changes that have occurred in their content and methodology. Particular attention is paid to the transition from approaches shaped by Soviet ideology to a new concept based on the history of national statehood, historical memory, national values, and patriotism. The article also explores the three stages of the development of history textbooks, the impact of educational legal and regulatory documents on textbook content, and the introduction of the competency-based approach in new-generation textbooks. Furthermore, it reveals the role of history textbooks in developing students' historical thinking, critical thinking, and independent analytical skills. The findings contribute to a deeper understanding of the modernization of history education and the improvement of history textbooks in Uzbekistan during the years of independence.

Keywords: history education, history textbooks, general secondary schools, national history concept, years of independence, educational reforms, historical memory, national statehood, competency-based approach, new-generation textbooks.

Kirish. Sovet davrida yaratilgan maktab darsliklarida kommunistik mafkura ustuvor bo'lib, ularda o'zbek xalqining milliy davlatchilik tarixi yetarli darajada yoritilmagan edi. Mustaqillik arafasidayoq tarix fani va maktab darsliklarini sovet mafkuraviy qoliplaridan tozalash ehtiyoji ziyolilar tomonidan keskin ilgari surilgan edi. Xususan, o'sha davr matbuotida ("**Sovet O'zbekistoni**" gazetasi) tashkil etilgan "**Oltin va muqaddas beshik**" nomli davra suhbatida respublikaning yetakchi tarixchi olimlari (A. Asqarov, H. Ziyoyev, H. Bobobekov va boshq.) maktab darsliklarining saviyasini tanqid qilib, o'tmishni faqat sinfiy kurash nuqtayi nazaridan yoritishga barham berish va O'zbekiston tarixini milliy manfaatlar asosida xolis o'qitish zarurligini ochiq muhokama qilgan edilar [11]. Bu jarayonlar mustaqillik yillarida tarix, adabiyot va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar darsliklarini mazmunan hamda metodologik jihatdan tubdan qayta ishlab chiqish uchun asos bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, jamiyat hayotining barcha sohalarida bo'lgani kabi, ta'lim tizimida ham tub islohotlar amalga oshirildi. Mazkur islohotlarning eng muhim yo'nalishlaridan biri umumta'lim maktablari uchun yangi avlod darsliklarini yaratish va ularni zamonaviy pedagogik talablar asosida takomillashtirish bilan bog'liq bo'ldi. Chunki darsliklar o'quvchilarning bilim olishi, dunyoqarashining shakllanishi hamda ma'naviy-axloqiy tarbiyasida asosiy o'quv vositasi hisoblanadi. Shu sababli mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab sobiq sovet mafkurasida yaratilgan darsliklarni qayta ko'rib chiqish va milliy qadriyatlarga asoslangan yangi o'quv adabiyotlarini yaratish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston umumta'lim maktablari tarix darsliklarining konseptual asoslari va takomillashuv bosqichlarini o'rganishda mazkur davr manbalari muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2019-yil 29-apreldagi** ***O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida***gi PF-5712-son hamda **2020-yil 2-martdagi** ***2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida***gi PF-5953-son Farmonlari), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2004-yil 22-noyabrdagi** ***2005-2009-yillarda umumta'lim maktablari uchun darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar nashr etish dasturi to'g'risida***gi 548-son qarori), O'zbekiston Milliy arxivi hujjatlari (O'zMA, M-26 fond, 1-ro'yxat, 140-yig'majild, 16-vaq) mazkur mavzuning asosiy manbalari hisoblanadi.

Shuningdek, mustaqillik davrida A. Sa'diyev, G. Fuzailova, M. Xasanova, R. Mavlonova va boshqalarning ilmiy qo'llanmalar mavzuni yoritishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolani yozishda ma'lumotlarning siyosiy tahlili, muammoviy tahlil, miqdoriy tahlil hamda tizimlashtirish kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Mustaqillik yillarida **O'zbekiston tarixi** darsliklarini takomillashtirish jarayonini uch asosiy bosqichga bo'lish mumkin.

1-bosqich (1991-2000-yillar). Bu bosqichda sovet davrida foydalanilgan darsliklar qayta ko'rib chiqildi. Mustaqillik g'oyasi, milliy qadriyatlar va yangi tarixiy yondashuvlar darsliklarga kiritila boshlandi. Bu bosqich, asosan, o'tish davri xarakteriga ega edi.

2-bosqich (2000-2016-yillar). Bu bosqichda yangi avlod darsliklari yaratildi. Tarixiy manbalar kengaytirildi, ilmiy-metodik asos mustahkamlandi, milliy tarix konsepsiyasi shakllandi. Darsliklar mazmun jihatidan tizimlashtirildi va yangilandi.

3-bosqich (2017-yildan hozirgacha). Ushbu bosqichda ta'lim tizimi kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirildi. Yangilangan Davlat ta'lim standartlari asosida darsliklar modernizatsiya qilindi, raqamli ta'lim elementlari joriy etildi. O'quvchilarda tanqidiy fikrlash va tahliliy yondashuvni rivojlantirishga alohida e'tibor

qaratilmoqda.

1992-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakat ta'lim tizimini demokratik asosda rivojlantirish uchun muhim huquqiy poydevor bo'lib xizmat qildi. Konstitutsiyada fuqarolarning bilim olish huquqi kafolatlanib, ta'lim tizimini rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida belgilandi [1].

Bu esa maktab darsliklarini yangilash va zamonaviylashtirish jarayoniga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi.

Ta'lim tizimidagi eng muhim islohotlardan biri 1997-yilda qabul qilingan **"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun** hamda **"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"** bilan bog'liqdir. Mazkur hujjatlar asosida uzluksiz ta'lim tizimi yaratildi va yangi avlod darsliklarini yaratish davlat siyosatining ustuvor vazifasiga aylandi. Ushbu dasturda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish hamda o'quv adabiyotlarini xalqaro talablarga mos ravishda yaratish masalalari alohida belgilab berildi [2; 6].

Shuningdek, Birinchi Prezident Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan milliy istiqlool mafkurasi g'oyalari ham darsliklar mazmunini yangilashda metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Natijada tarix darsliklarida milliy davlatchilik tarixi, Amir Temur va Temuriylar davri, jadidchilik harakati, milliy uyg'onish jarayonlari hamda mustaqillik uchun kurash mavzularini yoritishga alohida e'tibor qaratildi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida umumta'lim maktablari uchun 65 ta yangi darslik, 6 ta muqobil darslik va 24 ta original darslik tayyorlandi hamda tarjima qilindi. Boshlang'ich sinflar uchun lotin yozuvidagi 18 nomdagi darslik nashrga tayyorlandi.

O'quv rejalari va dasturlarida maktab o'quvchilari tomonidan davlat tili — o'zbek tilini, shuningdek, respublikada yashovchi boshqa xalqlar tillarini o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. Yangi fanlar joriy etildi. Jumladan, **V-XI (XII)-sinflar uchun "O'zbekiston xalqlari tarixi"** fani kiritildi [10].

Mustaqillik yillarida tarix darsliklari mazmuni va konsepsiyasida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Sovet davri darsliklarida tarixiy voqealar sinfiylik va kommunistik mafkura asosida talqin qilingan bo'lsa, mustaqillik davrida milliy davlatchilik va tarixiy xotira konsepsiyasi ustuvor yo'nalishga aylandi.

Xususan, Amir Temur shaxsi va Temuriylar davlati faoliyati sovet davrida salbiy yoki cheklangan tarzda yoritilgan bo'lsa, mustaqillik yillarida ushbu mavzular tarixiy manbalar asosida qayta baholandi. Shuningdek, jadidchilik harakati, milliy uyg'onish davri, repressiya qurbonlari va mustaqillik uchun kurash masalalari ham tarix darsliklariga keng kiritildi.

1990-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab tarix darsliklarida tarixiy manbalar bilan ishlash, mustaqil fikrlash va tahliliy yondashuv elementlari bosqichma-bosqich joriy etildi. Natijada darsliklar faqat nazariy ma'lumot beruvchi vosita emas, balki o'quvchilarda tarixiy tafakkur va fuqarolik pozitsiyasini shakllantiruvchi muhim pedagogik manbaga aylandi.

Shu o'rinda A. Sa'diyev, G. Fuzailova va M. Xasanovalarning **"Tarix o'qitish metodikasi"** o'quv qo'llanmasidagi fikrlarini keltirish mumkin: **"O'rta umumta'lim, o'rta maxsus ta'lim tizimlari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun yaratilgan darsliklarimizning tili ravon, sodda, ixcham, o'quvchi hayoti va faoliyatiga yaqin matnlardan tashkil topgandagina, u bolalarning sevimli kitobi bo'ladi, o'quvchilar mustaqil holda o'rganishi mumkin bo'lgan «ikkinchi o'qituvchi» vazifasini bajaradi, to'laqonli bilim manbaiga aylanadi."** [8]

2004-yil 22-noyabrda qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining **"2005–2009-yillarda umumta'lim maktablari uchun darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar nashr etish dasturi to'g'risida"**gi 548-son qarori darsliklar sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi [6].

Ushbu qaror asosida yangi avlod darsliklarini yaratish, ularni ekspertizadan o'tkazish va zamonaviy dizayn asosida chop etish tizimi shakllantirildi. Natijada darsliklarning metodik sifati oshib, rangli illyustratsiyalar, xaritalar, diagrammalar va tarixiy manbalardan foydalanish ko'lamiga kengaydi.

2017-yildan boshlab Shavkat Mirziyoyev rahbarligida ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning yangi bosqichi boshlandi. Ayniqsa, **2019-yil 29-apreldagi** **"O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"**gi PF-5712-son Farmoni maktab ta'limini rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini belgilab berdi [4].

Mazkur farmonda:

- zamonaviy darsliklarni yaratish;
- kompetensiyaga asoslangan ta'limni joriy etish;
- xalqaro standartlarga mos o'quv adabiyotlarini ishlab chiqish;
- elektron darsliklar va raqamli texnologiyalarni keng qo'llash

vazifalari belgilandi.

Bundan tashqari, Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan umumiy o'rta ta'lim davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga oid qarorlar ham darsliklarni takomillashtirish jarayonida muhim o'rin tutdi. Davlat ta'lim standartlari asosida har bir fan bo'yicha o'quvchilarda shakllanishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalar aniq belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **2020-yil 2-martdagi** **"2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"**gi PF-5953-son Farmonining 159-bandiga muvofiq **"Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturini ishlab chiqish"** vazifasi belgilab qo'yildi [5].

Mazkur vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (o'sha vaqtdagi Xalq ta'limi vazirligi) tomonidan umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi loyihasini ishlab chiqish bo'yicha ishchi guruhlar tarkibi shakllantirildi hamda yo'l xaritasi tasdiqlandi.

Umumiy o'rta ta'lim tarixida ilk bor umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi amaldagi davlat ta'lim standarti va

o'quv dasturlarini tanqidiy tahlil qilish, keng jamoatchilikning darsliklar mazmuniga nisbatan bildirgan fikr-mulohazalari, ta'limning keyingi bosqichi hamda zamonaviy mehnat bozorining real talablari, shuningdek, xorijiy davlatlarning ta'lim sohasida erishgan natijalarini inobatga olgan holda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi tomonidan ishlab chiqildi.

Mazkur dastur asosida **2020-2021-o'quv yilida** umumta'lim maktablarining 1-2-sinflari, **2021-2022-o'quv yilida** esa umumta'lim maktablarining 3-, 6-, 7- va 10-sinflari uchun darsliklar, mashq daftarlari hamda o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar ishlab chiqildi va hududlarda tajriba-sinovdan o'tkazildi.

Jumladan, **2022-yil 13-15-yanvar kunlari** Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani Chimyon qishlog'idagi "**Yoshlar ittifoqi**" dam olish maskanida, **2022-yil 28-31-mart kunlari** Jizzax viloyati Zomin tumanidagi "**Zomin**" bolalar sog'lomlashtirish oromgohida hamda **2022-yil 26-29-iyul kunlari** Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumani Miraki qishlog'ida joylashgan "**Miraki**" sanatoriyasida Respublika ta'lim markazi tomonidan qisqa muddatli o'quv-seminarlar o'tkazildi.

Mazkur o'quv-seminarlarda darslik mualliflari, metodistlar, o'qituvchilardan iborat trenerlar hamda amaliyotchi o'qituvchilar ishtirok etdilar. Darsliklarni takomillashtirish borasida tarix darsliklari bo'yicha hududiy o'qituvchilar va mualliflar o'rtasida muhokamali mashg'ulotlar olib borildi. Jumladan, mualliflar tomonidan yangidan ishlab chiqilgan 6-, 7- va 10-sinf **O'zbekiston tarixi** hamda **Jahon tarixi** darsliklari loyihalari bo'yicha ma'lumotlar berildi. Bunda darsliklardagi ma'lumotlarning so'nggi rasmiy hujjatlar asosida yangilanganligi, o'quvchilarning yoshiga moslashtirilganligi, avvalgi muhokamalarga sabab bo'lgan ma'lumotlarning chiqarib tashlanganligi, mavzuga oid xarita va rasmlarning ko'paytirilganligi hamda metodik jihatdan xorijiy tajriba asosida takomillashtirilganligi ta'kidlandi.

O'qituvchilar tomonidan 6-sinf **Qadimgi dunyo tarixi** darsligida qadimgi odamlarning kelib chiqishi haqidagi ma'lumotlarni aniqroq talqin qilish, 7-sinf **O'zbekiston tarixi** darsligida mavzuga oid rasmlarning sifatini yaxshilash, 7-sinf **Jahon tarixi** darsligida xaritalar sonini ko'paytirish, Markaziy Osiyo allomalarining jahon sivilizatsiyasidagi o'rni va ahamiyatiga alohida to'xtalish hamda 10-sinf **O'zbekiston tarixi** darsligida Ikkinchi jahon urushiga oid statistik ma'lumotlar hajmini qisqartirish yuzasidan taklif va e'tirozlar bildirildi.

O'quv-seminar davomida ishtirokchilar tomonidan bildirilgan asosli takliflar asosida darsliklar va o'qituvchi metodik qo'llanmalari takomillashtirildi hamda ishlab chiqildi.

Yuqoridagi talablardan kelib chiqib, tarix fani darsliklarida eng katta o'zgarishlardan biri tarixiy davrlashtirish bo'ldi. Albatta, bu davrlashtirish odatiy o'zgarish yoki yangilik yaratish uchun emas, balki o'lkamiz tarixidagi Renessans davrlarini o'quvchilarga kengroq tushuntirish hamda milliy tafakkurni yanada rivojlantirish maqsadida amalga oshirildi. O'zbekiston tarixining davrlashtirilishiga mos ravishda Jahon tarixi ham qayta davrlashtirildi. Jumladan:

- **5-sinf "Tarixdan hikoyalar"** fani tarixning umumiy, qiziqarli va muhim jihatlarini o'z ichiga oladi;
- **6-sinf "Qadimgi dunyo tarixi"** fani insoniyat paydo bo'lgan davrdan milodiy **476-yilgacha** bo'lgan voqealarni o'z ichiga oladi;
- **7-sinf "O'zbekiston tarixi"** fani **IV-XIII asrlar** tarixini qamrab oladi. Bunday davrlashtirishning maqsadi Vatanimiz tarixining eng yuksalgan bosqichlaridan biri bo'lgan **IX-XII asrlardagi Markaziy Osiyo Uyg'onish davri** madaniyatini o'quvchilarga kengroq yetkazib berishdan iborat;
- **7-sinf "Jahon tarixi"** fani ham **O'zbekiston tarixi** fanidagi davrlashtirishga mutanosib ravishda **V-XIII asrlarni** qamrab oladi. Bu esa o'quvchilarda qiyosiy tahlil ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi;
- **8-sinf "O'zbekiston tarixi"** fani **XIII-XV asrlarni** o'z ichiga oladi. Ushbu davrda Amir Temur va Temuriylar davri sivilizatsiyasi, ya'ni Ikkinchi Renessans davrini kengroq o'rganish orqali o'quvchilarning shaxsiy motivatsiyasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi;
- **8-sinf "Jahon tarixi"** fani **XIII-XV asrlarni** qamrab oladi;
- **9-sinf "O'zbekiston tarixi"** fani **XVI asrdan XIX asr o'talarigacha** bo'lgan davrni qamrab oladi. Unda, asosan, O'rta Osiyo xonliklarining ilm-fan va ma'rifat rivojiga qo'shgan hissasiga alohida e'tibor qaratiladi;
- **9-sinf "Jahon tarixi"** fani **XVI asrdan XIX asrning 70-yillarigacha** bo'lgan voqealarni o'z ichiga oladi;
- **10-sinf "O'zbekiston tarixi"** fani **XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asr oxirigacha** bo'lgan voqealarni qamrab oladi;
- **10-sinf "Jahon tarixi"** fani **XIX asrning 70-yillaridan 1991-yilgacha** bo'lgan voqealarni o'z ichiga oladi;
- **11-sinf "O'zbekiston tarixi"** fani **1991-yildan 2025-yilgacha** bo'lgan voqealarni qamrab oladi;
- **11-sinf "Jahon tarixi"** fani **1991-yildan 2025-yilgacha** bo'lgan voqealarni o'z ichiga oladi.

Albatta, ushbu tarixiy davrlashtirish tor doiradagi mutaxassislar tomonidan emas, balki ko'plab hamkor tashkilotlar va oliy ta'lim muassasalari mutaxassislarining xulosalari asosida belgilandi.

Tarix darsliklarini takomillashtirish va ularning yangi avlodini ishlab chiqish jarayoni boshqa sinflarda ham bosqichma-bosqich davom ettirildi. Jumladan, **2023-yilda 8-sinf O'zbekiston tarixi**, **2024-yilda 8-sinf Jahon tarixi**, **9-sinf O'zbekiston tarixi** va **Jahon tarixi**, **2025-yilda** esa **11-sinf O'zbekiston tarixi** va **Jahon tarixi** darsliklari ishlab chiqildi.

Shuningdek, doimiy e'tirozga sabab bo'lib kelayotgan, o'quvchilarning yoshiga nisbatan murakkab hisoblangan ma'lumotlar soddalashtirildi, mavzuni oson tushunishga yordam beruvchi rasmlar ko'paytirildi, muammoli va bahsli ma'lumotlar olib tashlandi.

R. Mavlonovanning pedagogik qarashlariga ko'ra, darslik ta'lim mazmunini o'quvchilarga yetkazuvchi asosiy didaktik vosita hisoblanadi. Muallif darslikni «ma'lum bir fanning mazmunini dastur asosida didaktik talablarga rioya qilgan holda bayon etuvchi o'quv kitobi» sifatida tavsiflaydi. Shu bilan birga, darslik o'quvchilarda mustaqil bilim olishga

qiziqish uyg'otishi, ilmiylik, tizimlilik va izchillik tamoyillari asosida yaratilishi, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi zarurligi ta'kidlanadi. Demak, tarix darsliklarini yaratishda tarixiy materiallarni ilmiy asosda tanlash, ularni tizimli va xronologik izchillikda joylashtirish, savol-topshiriqlar hamda ko'rgazmali vositalar bilan boyitish muhim metodik talablar sifatida namoyon bo'ladi [9].

So'nggi yillarda zamonaviy tarix darsliklarida tanqidiy fikrlash, tarixiy manbalarni tahlil qilish, mustaqil xulosa chiqarish kabi ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada darsliklar faqat nazariy bilim beruvchi manba emas, balki o'quvchini mustaqil fikrlashga, tahlil qilishga va ijodiy yondashishga yo'naltiruvchi vositaga aylana boshladi. Darsliklarda berilgan QR-kodli ma'lumotlar esa ta'limning interaktivligini oshirmoqda.

Xulosa. Umuman olganda, mustaqillik yillarida umumta'lim maktablari darsliklarini isloh qilish jarayoni O'zbekiston ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim tarkibiy qismiga aylandi. Yangi avlod darsliklari, jumladan, tarix fani darsliklari yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning tarixiy tafakkurini rivojlantirish hamda zamonaviy bilim va kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Davlatimiz tomonidan amalga oshirilgan ta'lim islohotlari natijasida darsliklarning mazmuni, metodologiyasi va texnologik imkoniyatlari sezilarli darajada takomillashdi. Kelgusida ham zamonaviy pedagogik texnologiyalar va xalqaro tajribalar asosida darsliklar sifatini oshirish O'zbekiston ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – 1997-yil 29-avgust, 465-I-son.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahrir). – 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5953-son Farmoni.
6. *Kadrlar tayyorlash milliy dasturi*. – Toshkent, 1997.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 22-noyabrda "2005–2009-yillarda umumta'lim maktablari uchun darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar nashr etish dasturi to'g'risida"gi 548-son qarori.
8. Sa'diyev A., Fuzailova G., Xasanova M. *Tarix o'qitish metodikasi*. – Toshkent, 2008.
9. Mavlonova R. va boshq. *Umumiy pedagogika*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 528 b.
10. O'zMA. M-26 fond, 1-ro'yxat, 140-yig'majild, 16-varaq.
11. Pirmatov M., Rahimova S. *Oltin va muqaddas beshik* // *Совет Узбекистану* gazetasi. – 1991-yil 11-aprel.